

**AXBOROT SOATLARIDA AJDODLAR ADABIY MEROSINI
O‘RGANISHDA TYUTORNING ROLI**

Shuhrat Jabborov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turkshunoslik fakulteti dekan o‘rinbosari

E-mail : shukur_jabbor@mail.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tyutorlik tushunchasi, axborot soatlarida talabalarga ajdodlar adabiy merosini o‘rgatish prinsiplari va o‘ziga xos vazifalari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tyutor, axborot soati, tyutorlik faoliyati, talaba, ajdodlar merosi.*

***Аннотация:** В этой статье освещается концепция репетиторства, принципы и конкретные задачи обучения студентов литературному наследию предков во время информационных часов.*

***Ключевые слова:** тьютор, информационный час, тьюторская деятельность, студент, наследие предков.*

***Abstract:** This article highlights the concept of tutoring, the principles and specific tasks of teaching students the literary heritage of their ancestors during information hours.*

***Keywords:** tutor, information hour, tutor activity, student, ancestral heritage*

Bugungi kunda "tyutor" atamasining bir necha ta'riflari mavjud bo'lib, ingliz tilidan tarjima etilganda tutor tom ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Pedagogik-psixologik atamalar lug'atida "o'quvchilarining bilimdon murabbiyi" deb ta'rif berilgan.

Xalqimiz azaldan buyuk zotlar va avliyolarga ehtirom bilan qarab, ularni ulug'lash bilan qatorda, vafot etganlaridan so'ng ham muntazam ziyorat qilib turish an'anasiga amal qilib kelgan. Ana shulardan kelib chiqib axborot soatlarida talabalarga buyuk allomalar, nomlari unitilib ketayotgan avliyo darajasidagi ulug' zotlar haqida ma'lumot berish talab etiladi.

Istiqlol sharofati bilan milliy o'zligimizni anglash, ko'xna tariximizni tiklash va o'rganish imkoniyatiga sazovor bo'ldik. Shunday ekan, talablarga axborot soatlarida bu haqda uqdirib, fikrlashish lozim bo'ladi. Axborot soatlarida buyuk ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Shayx Najmiddin Kubro, Baxovuddin Naqshband kabi mutafakkirlarimizning nomlari tiklanib, ularning ma'naviy merosi o'rganilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgani, bu to'g'rida barcha talablar ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlash tyutorlarning vazifasiga kiradi. Mustaqillik yillarida buyuk bobolarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari, ziyoratgoxlar jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong,

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

o‘zlikni anglash va milliy g‘ururni yuksaltirishga bularni talaba- yoshlar ongida shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot soatlarida Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalarning hayoti va ilmiy merosi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda talabalarning ijtimoiy tarmoq va internet saytlaridan oqilona foydalanishi, turli axborot xurujlaridan ogoh va xushyor bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

Masalan, ajdodlar merosini o‘rganishda IX asrda Imom Termiziy “Sunani Termiziy” asari orqali Termiz hadis maktabini dunyoga tanitgan bo‘lsa, XII asrda Majiduddin Ja’far ibn Ali Musaviy astronomik tadqiqotlar uchun Movarounnahrda ilk rasadxonaga asos solgani to‘g‘risida ma’lumot berish, talabalarni qiziqtirish lozim bo‘ladi. Tariximizni haqqoniy yoritishda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiy shaharlarimizdagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta’mirlash, asl hoida bunyod etish kabi ishlarga alohida e’tibor berildi. Bu bejiz emasdi. Chunki bu madaniy boyliklar tariximizning asl manbalari, jonli guvohlari, ilmiy asoslari hisoblanadi. Ma’lumki, mamlakatimizda 7198 ta tarixiy yodgorliklar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 2357 tasini me’moriy obidalar, 3843 tasini arxeologik yodgorliklar, 998 tasini mahobatli tarixiy inshootlar tashkil qiladi. Bu raqamlar mamlakatimizni nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda tarixiy madaniy yodgorliklarga boy o‘lkalardan biri sifatida namoyon etadi. Shular orasida tarixiy me’moriy obidalar alohida o‘rin tutadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar talabalarga axborot soatlarida ta’kidlab borilsa ularda o‘zga madaniyatga taqlid qilishi kamayadi. Yurtimiz mustaqillikka erishishdan oldin sanab o‘tilgan me’moriy yodgorliklar, obidalarning aksariyati buzilgan, ta’mir qilinmagan, yarim vayrona holatlarda edi. Davlatimiz rahbarlari birinchi navbatda, ana shunday inshootlarni, yodgorliklarni qayta qurish, ta’mirlash, asl tarixiy asosda bunyod etishga e’tiborni qaratganini barcha talaba ham bilmaydi. Eng avvalo, bu boradagi ish respublikamizning eng yirik tarixiy shaharlaridagi yodgorliklardan boshlandi. Samarqanddagi Registon, Ruhobod, Xoja Ahror Vali, Jomye masjidi, Chorsu majmualari, Amir Temur, Bibixonim maqbaralari, Hizrati Hizr masjidi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Nodir Devonbegi madrasasi, Buxorodagi Chashmai Ayub, Bolo hovuz, Chor minor, Ark, Labi hovuz majmualari, Kalon minorasi, Mag‘oki attor, Kalon, Qushbegi, Toqi-Sarrofon, Muzaffarxon masjidlari, Tolipoch darvozasi, Mir Arab, Mirzo Ulug‘bek, Ko‘kaldosh, Abdullaxon, Tosh saroy madrasalari qaytadan, asl tarixiy qiyofasida qad rostladi. Xivadagi Ko‘xna Ark, Tosh hovli, Qibla toza bog‘, Dishon qal’a, Nurullaboy majmualari, Ichon qal’a devori,

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

darvozalari, Juma masjidi, Muhammad Aminxon, Feruz, Islom Xo‘ja madrasalari, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi, Jomye masjidi, Norbo‘tabiy, Miyon Hazrat madrasalari, Qarshidagi Odina masjidi, qadimiy ko‘prik, Xojai Jarroh, Chor Gumbaz majmualari, Qilichboy, Bekmir madrasalari tarixning noyob merosi — nodir yodgorliklar, osori-atiqalar, inshootlar sifatida qayta tiklandi, ta‘mirlandi, xalqimizning ma‘naviy mulkiga aylandi. Xuddi shunday ulug‘vor ishlar Toshkentda Hazrati imom, Shayx Xovand Tohur, Zangiota majmualarida, Ko‘kaldosh madrasasida, Termizda Sulton Saodat, Qirq qiz, Hakim at-Termiziy majmualarida, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dor ut-tilovat, Gumbazi sayyidon, Dor us-siyodat majmualarida ham olib borildi.

Ilojini boricha talabalar qiziqtirib, ana shu ziyoratgoh va qadamjollarga sayohat qilishlarini ham ta‘minlash tyutorlar vazifasiga kiradi. Darvoqe, Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Imom al-Buxoriy, Xoja Doniyor majmualari, Buxorodagi Labi hovuz, Kalon masjidi, Chor Bakr, Ark me‘moriy yodgorliklari, Shahrisabzdagi Ko‘kgumbaz, Dor us-siyodat, Oqsaroy obidalar turkumi, Marg‘ilondagi Piri Siddiq, Said Ahmad meros obe‘ktlari, Xivadagi Ichon qal‘a shahristoni nodir yodgorliklari, Toshkentdagi Xasti Imom me‘moriy inshootlari, Termizdagi termiziylar qadamjolari tarixiy ko‘rinishga monand tiklandi.

Bu ulug‘ ishlarning barchasi talaba-yoshlar va umuman xalqimiz uchundir. Ayni paytda, ulug‘ ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Sulton Uvays Qoraniy, Iso at-Termiziy, Mahdumi A‘zam, Abu Xafs Kabir kabi allomalarimiz nomlari bilan ataladigan 50 dan oshiq muqaddas ziyoratgohlar ham qayta bunyod etilib, xalqimizning oyog‘i uzilmaydigan obod va go‘zal maskanlarga aylandi.

Yurtimizda mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlarini qayta qurish, ta‘mirlash va obodonlashtirish bilan birgalikda o‘tmishda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar, mashhur ijodkorlar, buyuk siymolar merosini o‘rganish, nomlarini ulug‘lash, xotiralarini abadiylashtirish borasida ham ulkan ishlar qilindi.

Tyutorlarning vazifasi ana shu obidalar haqida talabalarga ma‘lumot berish, xolos. Ulug‘ mutafakkir, matematika va algebra fanlari asoschisi Muhammad Muso al-Xorazmiy, buyuk astronom, tarixda nomi qayta tiklangan alloma Ahmad Farg‘oniy, tabobat ilmining sultoni, tib ilmi qonunlarini yaratgan Abu Ali ibn Sino, o‘rta asrlar astronomiya ilmining ulug‘ namoyandasi Mirzo Ulug‘bek, mumtoz she‘riyatning o‘lmas dahosi Alisher Navoiy haykallarining o‘rnatilishi mana shu davrda kechdi. Atoqli mutakallim Abu Mansur Moturudiy, buyuk faqih, “Hidoya” asari muallifi Burxoniddin Marg‘inoniy, ulug‘ muhaddis Imom al-Buxoriy, Xojagon tariqatining mashhur namoyandasi Abulholiq G‘ijduvoniy, naqshbandiya tariqatining

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

asoschisi Bahouddin Naqshbandiy, mutasavvuf alloma, ulug‘ shoir Pahlavon Mahmud, xalqqa ko‘p yaxshiliklar qilgan, Hazrati Imom nomi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Qaffol Shoshiy maqbaralarining va muqaddas qadamjolarining tiklanishi, qayta qurilishi, obod qilinishi istiqloлга erishganimiz sababli yuz berdi. Tariximizning o‘lmas siymolari, xalqimiz va Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Sharqda qudratli va adolatli davlat yaratgan Amir Temur, ham shoir, ham davlat arbobi sifatida tanilgan Zahiriddin Muhammad Bobur majmualari, haykallari yurtimiz mustaqilligining sharofati tufayli tiklandi. Mana shunday buyuk mutafakkirlar, ulug‘ siymolarning xalqaro doirada bir necha yuz va ming yillik to‘ylari o‘tkazildi. O‘zbekiston dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk daholar yurti ekanligi e‘tirof etildi.

Axborot soatlarida talabalarni ushbu ajdolarimiz ma‘naviy merosiga qiziqtirish uchun so‘rovnoma usullaridan, interfaol metodlarda foydalanilsa ayni muddao bo‘ladi. Umuman, respublikamizda mustaqillik yillarida mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar qayta qurilib, ta‘mirdan chiqarildi. Bu ishlar uchun bir necha yuz milliard so‘mlik mablag‘ sarflandi. Tarixiy merosimiz tiklandi, qadriyatlarimiz qaror topdi. Yurtimizda amalga oshirilgan ulug‘vor ishlar xalqaro miqyosda ham tan olindi. Mamlakatimizdagi to‘rtta qadimiy shahar — Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan Butun jahon moddiy madaniyat namunalariga ega bo‘lgan tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritildi. 2007-yilda Toshkent shahri ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti — AYSESKO tomonidan “Islom madaniyati poytaxti”, deb e‘lon qilindi. Shuningdek, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti va YUNESKO xalqaro tashkilotining qarorlariga ko‘ra, Samarqand shahrining 2750, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlarining 2500, Toshkent va Marg‘ilon shaharlarining 2200, 2000-yillik to‘ylari dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda nishonlandi. Bularning hammasi istiqlol yillarida O‘zbekistonning tarixini boyitish, yangilash bilan birgalikda uning dunyoviy nufuzini oshirdi, xalqaro darajada mavqeini yuksaltirdi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ma‘lumotlarni talabalar ongi shuuriga singdirish orqali ushbu ajdodlarimizga ehtiromli, haqiqiy vorislarni tarbiyalash imkoni paydo bo‘ladi. Buning uchun esa tyutorlarni universitetning boshqa o‘qituvchilaridan ham ko‘proq mas‘uliyatli vazifa kutib turibdi.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистан Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш туғрисида"ги ПФ-5847-сон Фармони// lex.uz
2. Inncheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
3. Лях А.Ю. Развивающий потенциал тьюторских технологий в системе обучения старших школьников // Образование и наука. 2013. № 10 (109). ст. 3751
4. Ковалева Т.М., Кобыща Е.И., Попова (Смолик) С.Ю., Теров А.А., Чередилина М.Ю. Профессия «тьютор». М. -2012. Тверь: «СФК-офис». -246 с
5. Сайфиддин Сайфуллоҳ. Етти пир. (Дунё муршидлари) –Тошкент: “Ўзбекситон” 2019. –Б. 285.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 30 sentyabrdagi 412-son buyrug‘iga 1-ilova. “Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom” [Elektron resurs] / <https://edu.uz/uz>
7. Urinova N.M., Abdullayeva X. Tyutorlik faoliyatining shakllanishi, uning tarixiy va zamonaviy xususiyatlari [Elektron resurs] / <https://cyberleninka.ru/article/n/tyutorlik-faoliyatining-shakllanishi-uning-tarixiy-va-zamonaviy-hususiyatlari>
8. Boymurodov A.X., G‘aniyev I.D., Rejabov M.Y. "Ustoz-tyutor-talaba" ilmiy faoliyati [Elektron resurs] / <https://cyberleninka.ru/article/n/ustoz-tyutor-talaba-ilmiy-faoliyati>.
9. Челнокова Е.А. Тьюторская деятельность педагога в условиях профильного обучения: дис. кандидат педагогических наук: 13.00.01 - Общая педагогика, история педагогики и образования. – Нижний Новгород, 2010. – 184 с.